



**BOSHLANG'ICH SINIF "TARBIYA" DARSLARIDA  
ALLOMALARIMIZNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN  
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**Yuldashova Go'zal Kamiljon qizi**

*Nukus davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim 2-kurs*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassalari boshlang'ich sinflarida joriy etilgan "Tarbiya" darsligi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darslarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning pedagogik qarashlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** bilim, tarbiya, ma'naviyat, milliy meros, komillik, axloqiy chegara, baxt va muvaffaqiyat sirlari, ustoz.*

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son buyrug'iga asosan "Umumiy o'rta ta'lim muassalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

Darsliklarni tayyorlashda Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi" fanlari va darsliklari yaqindan o'rganildi. Ilk marotaba darsliklarda XXI asr ko'nikmalari deb nom olgan "yumshoq ko'nikmalar" joriy qilindi. Darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari ko'nikma shakllantiriladi. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular o'quvchilarda muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi. O'quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qurilgan. "Tarbiya" darsliklarida "role-model", ya'ni "namuna keltirish" zamonaviy pedagogikadagi metoddan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi. Sinov tariqasida 1-9 sinfgacha bo'lgan darslik ustida bitta ijodiy jamoa ishlagan. Bu har bir sinf darsligi o'rtasidagi tafovut va takrorlanishlarni oldini olgan va bir butun, izchillikdagi darslik yaratilishini ta'minlagan. "Baxt va muvaffaqiyat sirlari" "Tarbiya" fanining epigrafi hisoblanadi. Baxt nima o'zi? Baxtning "Tarbiya"



fani bilan qanday bog‘liqligi bor? Baxtli bo‘lish uchun insonda avvalo, ma’naviy va axloqiy yetuklik, insoniy fazilatlar, qadriyatlar, an’analarga hurmat, vatanparvarlik hislatlari shakllangan bo‘lishi kerak. Yangi joriy qilingan “Tarbiya fani” milliy qadriyatlarimiz, sharqona qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimiz bilan chambarchas bog‘langan holda tuzilgan. Bu fan ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosga hurmat ruhini tarbiyalaydi.

2020-2021- o‘quv yilidan boshlab joriy qilingan 1-11-sinflar “Tarbiya” darsligi muqovasiga jadidchilik maktabining asoschisi Abdulla Avloniyning shunday fikrlari yozilgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu fan rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari va milliy, ma’naviy qadriyatlarimizning uyg‘unligi asosida tuzilgan.

1-sinf “Tarbiya” darsligining 1-bobi “Men O‘zbekiston farzandiman” deb nomlangan. “Bilim olish sirlari” deb nomlangan 2 soatga mo‘ljallangan mavzu ushbu bobning 4-5- mavzusi sifatida kiritilgan. Bu mavzu birinchi chorakka to‘g‘ri keladi. Mavzuda bilim olish sirlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. 1-darsda nazariy malumotlar keltirilgan, ya’ni bolalar muvaffaqiyatlar va imkoniyatlar eshigini qanday kalit bilan ochishlari mumkinligi haqida aytib o‘tilgan.

Bilimning yuqori pillapoyalariga chiqish uchun, avvalambor o‘quvchilarning o‘zlarida xohish-istak bo‘lishi kerakligi, darslarda o‘z vaqtida kelish, vazifalarni sifatli bajarish, berilgan topshiriqlarni takrorlash, do‘stlar bilan hamkorlik qilish bilan bir qatorda ustozlarni diqqat bilan tinglash, sabr- bardosh va tirishqoqlik bilan harakat qilib yuqoriga intilish kerakligi haqida ma’lumotlar berilgan. Mavzuda Alisher Navoiyning

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado, oning haqin yuz ganch ila. hikmatli so‘zi berilgan. Ushbu jumalalarda ustozlar haqida so‘z boradi. Birinchi ustoz shogirdining savod chiqarishida yaqindan ko‘maklashadi, bu bilan uning hayot yo‘lini yoritadi.



Ustozlarning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to'lab bo'lmasligini Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Biz pedagoglar o'quvchilarning ma'naviyaxloqiy sifatlarini shakllantishda, hayot yo'llarini topishlarida yaqindan yordan beradigan ustozlarga doimo hurmatda bo'lish kerakligini o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirishimiz lozim. Alisher Navoiy me'rosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda har tomonlama namuna bo'ladi. Shoirning ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarb sanaladi. Chunki, ustoz shogird tushunchasi yuksak milliy qadriyatlarimizdan hisoblanib, bunda asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelinadi. "Agar shogirdlik binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodad ustiga, deb aytgin. Iroda nima deb so'rasalar, ustoz nimaiki aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngil bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir. Agar shogirdga nima yaxshi deb aytsalar, pok e'tiqod, deb ayt, chunki faqat e'tiqod kishini murodga yerkazadi. Shogirdlik odobi sakkizta. Ular, ustozga birinchi bo'lib salom berish, ustoz oldida oz gapirish, boshni egib turish, ko'zni har tomonga yugurtirmaslik, masala so'ramoqchi bo'lsa oldin ijizat so'rash, ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik, ustoz oldida birovlarni g'iybat qilmaslik, o'tirish-turishda hurmatni to'la saqlash" kerak degan purma'no so'zlari buning yaqqol misolidir.

Boshlang'ich ta'limda, ya'ni 1-4 sinf "Tarbiya" darsliklarida buyuk shoirimiz haqida bolalarga o'rnak bo'ladigan kichik-kichik afsona va rivoyatlar, asarlaridagi hikoyalar namuna tarzida keltirilgan. Bunday ma'lumotlar Alisher Navoiy hayoti va ijodini yosh bolalarga sodda va tushunarli tarzda o'rgatishda dastlabki qadamdir. Binobarin, Alisher Navoiy hikmatlari mohiyatini anglagan barkamol avlod jahonga yuz tutadi. Dunyo ilm ahli bilan umumbashariy mavzularda bellasha oladi.

4-sinf Tarbiya darsligining "Axloq – inson ko'rki" deb nomlangan 2-bobida "Rostgo'ylik" mavzusi berilgan. Bu mavzuga esa Alisher Navoiyning "Sher bilan Durroj" hikoyasi ketirilgan. Ushbu hikoya "Xamsa" asarining birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" dan olingan. "Hayrat ul-abror" o'zbek tilida "Yaxshi kishilarning hayratlanishi» degan ma'noni anglatadi. Bu asar 20ta maqolotdan iborat. Maqolotlar muayyan bir axloqiy, didaktik mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. "Hayrat ul-abror" ning o'ninchi maqolatida yolg'onchilikning



fojiali yakunini kitobxonga teranroq anglatish uchun shoir dostonga “Sher va Durroj” hikoyatini kiritadi. Durroj do‘stlikning shartlariga sodiq qolmadi: do‘stini aldadi, uning so‘zlariga quloq osmadi. Hayotining eng mushkul nuqtasi – ovchining tuzog‘iga tushgan paytida sherning yordamga yetib kelmasligi va hayotining fojia bilan nihoya topishiga sababchi qilib, shoir Durroj shaxsiyatidagi egrilik, xususan, yolg‘onchilik illatini ko‘rsatadi. Bu hikoya katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yolg‘onchilikning oqibati qanday oqibatlarga olib kelishini Alisher Navoiy Durroj misolida yaqqol tasvirlab bergan. Navoiyning to‘g‘rilik dunyosiga intilayotganlarga ko‘rsatgan ikki yo‘lining birinchisi – insonning so‘zi to‘g‘ri bo‘lishi lozimligi. Til to‘g‘riligi, rostgo‘ylik – komil shaxs uchun muhim xususiyat. Bu xususiyatni o‘zida aks ettirmagan inson – yolg‘onchi. Navoiyning yolg‘onchilarga munosabati aniq: ularni hattoki musulmon sanamaslik kerakligini aytadi: Ulki shior ayladi yolg‘on demak, Bo‘lmas ani eru musulmon demak.

Navoiy yuqoridagi hikoyasi orqali ko‘p insonlarda uchrab turadigan yolg‘onchilik illatini durroj misolida yoritib bergan. Yolg‘on gapirishni odat qilgan odam o‘zining bu qilg‘idan uyalishi o‘rniga, kishilarni aldaganidan faxrlanadi. Yolg‘on gapiga go‘llik bilan quloq soluvchi va unga ishonuvchi kimsani topsa, o‘z maqsadiga yetgan bo‘ladi. Agar yolg‘onchining yolg‘on so‘zi fosh bo‘lsa, u yuzi qoro bo‘lib, butun umr odamlar qatoriga qo‘shila olmaydi. Ushbu hikoyada insonlar har qanday sharoitda ham to‘g‘ri so‘zlash, yolg‘ondan hazar qilishi lozimligi uqtirilmoqda. O‘quvchilar hikoyani o‘qish orqali yolg‘onchi insonlar xalq orasida yaxshi nom bilan tilga olinmasligi, rost so‘zlovchi, o‘z so‘zining ustidan chiqqa oladigan kishilar esa xalq orasida doim hurmate‘tiborga sazovor bo‘lishi ta’kidlangan. Yolg‘onchi o‘z gapini o‘tkazish uchun qancha urinmasin, u o‘z gapiga insonlarni bir-ikki marta ishontira oladi xolos. Yolg‘onchi kishi o‘z yolg‘onini qancha maxfiy saqlamasin, yolg‘on baribir o‘zini ma’lum qiladi. Kimki, o‘zini yolg‘onchi sifatida tanitgan bo‘lsa, rost gapirsa ham, xalq uning hamma gapini yolg‘on hisoblaydi. Kimki, yolg‘onchi deb nom chiqargan bo‘lsa, o‘zinikilar ham, begonalar ham uni shu ot bilan chaqirar ekanlar, to‘g‘rilik nomi unga hech qachon qaytib kelmaydi. To‘g‘ri gapirsa ham xalq unga ishonmaydi. Qandaydir og‘ir vaziyatda qolganingda ham chin so‘zni gapirishning iloji bo‘lmasa, yolg‘on so‘zni ham gapirma.



**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy merosini yosh avlodga chuqur o'rgatishimiz zarur. Zeroki, u o'z asarlarida milliy iftixor, xalqqa, ona tiliga, Vatanga mehr-muhabbat bilan qarash g'oyalarini targ'ib qilgan. Ulug' mutafakkir yoshlarni el-yurtga, otaonasiga sodiq kishilar bo'lib yetishishi uchun sabot va matonat bilan bilim egallashga, kasb o'rganishga, egallagan ilm va hunarini Vatan uchun, xalqqa naf keltirish uchun hayotga tadbiiq eta bilishga da'vat qiladi. Navoiy asarlarida madh etilgan xalqlar do'stligi, tinch-totuv yashash uchun kurash kamtarlik, mehribonlik, ochiq ko'ngillik, shirinsuxanlik, saxovatpeshalik, beva-bechoralarga yordam qo'lini cho'zish, ustozga izzat kabi fazilatlar hamisha xalqimizga tetik ruh va quvvat baxsh etaveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.: “Ma'naviyat” 2008. – 108 b.
2. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. O'ZBEKIST, 87.
3. Taubaevich, K. Z., & Abdigaziyevna, T. T. (2022). The Role Of William Shakespeare's Work In The Development Of European Literature. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 299-304.
4. Taubaevich, K. Z., Kondybaevna, A. B., Ramazanovna, E. A., Karymsakova, B. A., & Atabaevna, K. A. (2022). Psychologism In Modern Prose. Journal of Positive School Psychology, 3682-3685.
5. Mustafayev, S., & Kadyrov, K. A. (2022). The Educational Potential of Art and Its Realization in the Context of Globalization. International Journal on Integrated Education, 5(6), 218-222.
6. Jubatkhonovna, S. S., & Jaksimuratovna, M. G. (2021). Types of structure of phraseologies in the work of T. Kaipbergenov “The secret known only to you”. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(14), 4486-4490.
7. Saklapbergenovna, P. G., & Mambetova, G. J. (2021). Morphological structure of ornonyms in the karakalpak language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 216-219.
8. Khakimov, K. M., Zakirov, A. A., Seytniyazov, K. M., & Gaypova, R. T. (2021). Some Aspects Of The Relationship Between Nature And Society In Geography. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 15320-15325.



9. Tursinbaevna, G. R. (2021). The use of interactive methods on the topic of geographic shell and its properties. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 145-149.
10. Abdugaffarovna, O. K., & Kurbanovna, N. T. (2022). FEATURES AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIALOGICAL GENRES IN JOURNALISM (IN THE EXAMPLE OF TV INTERVIEWS). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 142-151.
11. Toshpo'latova, N. (2021, March). THE ROLE OF POLEMICS IN МАНМУДКНОЈА ВЕНБУДИ'S WORK. In *Конференции*.
12. Ташпулатова, Н. К. (2021). УЗБЕКСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ 2020 ГОДА. In *Media Landscape of Russia and the World: Past, Present, Future* (pp. 592-598).
13. Nazira, T., & Mukarram, O. (2020). Online versions of local newspapers in Uzbekistan: problems and prospects. *Academy*, (4 (55)), 53-54.

